



OLY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI



TOSHKENT DAVLAT  
SHARQSHUNOSLIK  
UNIVERSITETI

TURKSHUNOSLIK FAKULTETI

TURK FILOGIYASI KAFEDRASI

# “O‘ZBEKISTON TURKSHUNOSLARINING I FORUMI”

materiallari to'plami



TOSHKENT - 2024

**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEKISTON TURKSHUNOSLARINING  
I FORUMI”**

**TOSHKENT – 2024 y.**

**Mas'ul muharrir:**

***Sodiqov Q.***

*Filologiya fanlari doktori, professor*

**Taqrizchilar:**

***Shabanov Dj.K.***

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

***Tilavov A.X.***

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

## MUNDARIJA

<b>1. Проф. Қосимжон Содиқов</b> “Абу Малик бахши уйғур хатида кўчирган мажмуа” .....	5
<b>2. Проф. Karimov Baxtiyor Rahmanovich</b> “O‘rta turk tili va o‘rta bitik yozuv tizimining turkiy tillar rivojidadagi o‘rni” .....	12
<b>3. Prof. Dr. Shoira Usmanova</b> “Kaşgarli Mahmud’un “Divanu lugatit türk” eserindeki üst giysi adlari” .....	18
<b>4. Prof.Dr. Elçin İbrahimov</b> “Bağımsizli dönemi Özbekistan Cumhuriyeti’nde dil politikasi” .....	22
<b>5. Filol.f.d Yorqinjon Odilov</b> “Tilda ijtimoiy qatlamlanish” .....	30
<b>6. Doç.Dr. Tahir AŞIROV</b> “Rusya imparatorluğu döneminde Taşkent’te yayimlanan mahtumkulu şiirleri: n. P. Ostroumov örneği” .....	35
<b>7. Filol. f. d. (DSc) Hamidov Xayrulla Xudoyorovich</b> “Soxta ekvivalentlik tushuncha” .....	40
<b>8. Проф. Алимбеков Адхамбек Камолович</b> “Ўзбекистонда турк адабиётини ўрганиш тарихидан” .....	51
<b>9. Elebesova Burul Bekkazienva</b> “Kirgiz ve Türk şiirinde 'ömür' ve 'ölüm' kavramlari” .....	58
<b>10. Тилавов Абдумурод Холмуратович</b> “Достонлардаги от образининг тарихий илдизларига доир” .....	69
<b>11. Fil.ü.f.dok., Xudiyeva Mətanət Mirzəxan qızı</b> “Azərbaycan və özbək dillərində məcazların leksik-semantik təhlili” .....	88
<b>12. Phd. Salimova Zebo Rustam qizi</b> “Turk tilida inson qiyofasini ifodalovchi fitomorf birliklar” .....	97
<b>13. Farizat Kuramaeva</b> “Çağdaş Kirgiz, Türk ve Azerbaycan dillerinde relik hâl eklerinin gramatik anlamlari” .....	102
<b>14. Фил.ф.д., Холида Имамова</b> “Турк тилида юқори даражали мурожаат турлари хусусида .....	111
<b>15. Elbek O‘rol o‘g‘li Ro‘ziyev</b> “Turkiy tillar tarixida siyosiy nutq taraqqiyotiga doir ba‘zi mulohazalar” .....	121
<b>16. Субҳонов Шермурод Шерқулович</b> “XX аср турк шеърятининг тадрижий босқичлари” .....	124
<b>17. Sabirova Zuxra Shakirovna</b> “Turk tilida ota tomonidan qarindoshlik nomlarining leksik xususiyatlari” .....	130
<b>18. Zilola Djurayeva</b> “Turk tilida turizm turlarini anglatuvchi atamalarning freym tahlili” .....	137
<b>19. Алтундаг Мохигул Жамолдин қизи</b> “Таржимашуносликда эквивалентлик термини” .....	141
<b>20. Mirzayeva Go‘zal Qobuljonovna</b> “Distributiv metodning o‘zbek va turk tillarida fonetik jarayon sifatidagi talqini” .....	148

<b>21. Фарход Гисаров</b> “Уйғур тилидаги ўсимлик номлари арабизмлари ва улардаги фонетик ўзгаришлар” .....	157
<b>22. Хайдарова Ра’но Анваровна</b> “Талба қизларда ватанпарварлик fazilatini rivojlantirishda loyiha texnologiyalarini ahamiyati” .....	164
<b>23. Hoshimov Akmal Sadilayevich</b> “Turk tilshunosligida yevropa tillaridan o‘zlashma so‘zlarning tadqiqi” .....	172
<b>24. Alimardanov Elyor Ilxom o‘g‘li</b> “Xorazm dialektal zonasidagi o‘zbek va turkman tillarining ba’zi fonetik xususiyatlari” .....	180
<b>25. Sobirov G‘ulomjon Xikmatjon o‘g‘li</b> ““Qutadg‘u bilig” asari va uning bugungi kundagi ahamiyati” .....	195
<b>26. R.M.Madaminova</b> “Hofiz Xorazmiy “Devon”idagi maishiy leksika” ...	202
<b>27. Абдуллаев Улуғбек Артикбаевич</b> “Амир Темур ва Йилдирим Боязид муҳорабасининг халқаро аҳамияти” .....	208
<b>28. Phd. Махамаджон Арипов</b> “Turk tilining bugungi holatiga bir nazar” .	218

9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 2. – М.1981
10. Hamed Khan. Sa'lebî'nin kisasü'l-enbiyâ eserinin eski anadolu türkçesine çevirileri: betimleyici çeviri kuramları ışığında karşılaştırmalı bir inceleme. — Ankara, 2019

## DISTRIBUTIV METODNING O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA FONETIK JARAYON SIFATIDAGI TALQINI

Mirzayeva Go‘zal Qobuljonovna  
ToshDO‘TAU tayanch doktranti  
E-mail: [guzelmirzayeva77@gmail.com](mailto:guzelmirzayeva77@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada distributiv metod fonetik jarayon sifatida o‘rganildi va ushbu hodisaning dunyo tilshunosligida hamda o‘zbek va turk tillaridagi talqinlari, uning o‘rganilishi va o‘xshash va farqli jihatlari yoritib berildi.

**Kalit so‘zlar:** fonetika, distributsiya, fonetik jarayonlar, korrespondensiya, reduksiya, sinkopa, apokopa, sinerezis, assimilyatsiya, dissimilyatsiya.

**Аннотация.** В статье изучен дистрибутивный метод как фонетический процесс и объяснены трактовки этого явления в мировой лингвистике, а также в узбекском и турецком языках, его изучение, а также сходства и различия.

**Ключевые слова:** фонетика, распространение, фонетические процессы, соответствие, редукция, обморок, апокоп, синерезис, ассимиляция, диссимилиация.

**Abstract.** The article studied the distributive method as a phonetic process and explained the interpretations of this phenomenon in world linguistics and the Uzbek and Turkish languages, its study, and its similarities and differences.

**Key words:** phonetics, distribution, phonetic processes, correspondence, reduction, syncope, apocope, syneresis, assimilation, dissimilation

### **Kirish**

Distributsiya atamasi tilshunoslikka Amerika tilshunosligi maktabi tomonidan kiritilgan. I.S.Stepanovning fikricha, bu atama dastlab Amerika tilshunosi gottototologiya metodining asoschisi M.S.Svodosh tomonidan 1934 yilda qo‘llangan. [Степанов, 1975, 203]. Deskriptiv tilshunoslik til tuzilishini ifoda va ma

'nodan tashkil topgan butunlik, deb tushunadi va ifoda tuzilishini tilning bosh komponenti deb hisoblaydi. [Глисон, 1959, 33].

Mazmun tuzilishini esa ikkinchi muhim komponent sifatida baholaydi. Lekin mazmuniy tuzilishga munosabat Amerika tilshunosligida bir xil emas. Shuning uchun lingvistik ma'no va uning lingvisik tadqiqotlardagi o'rni masalasi Amerika tilshunosligining fundamental muammosiga aylandi. [Nurmonov, 2010, 81.]

Fonetik distributsiyaga oid ilmiy adabiyot va o'quv qo'llanmalari bilan tanishar ekanmiz, tilshunoslikda, qolaversa, o'zbek va turk tilshunosligida turlicha qarashlarni ko'rishimiz mumkin.

Y.S.Maslov fonema distributsiyasi va uning variantlariga to'xtalar ekan, distributsiya tilning nafaqat fonetika va fonologiya sathiga, balki barcha sathlariga tatbiq qilinishi mumkin bo'lgan birlik ekanini ta'kidlaydi va erkin almashinish distributsiyasiga alohida to'xtaladi. Tilshunos rus tilidagi *лужайка* so'zining erkin almashinuvchi variantlarini ko'rsatar ekan:

(1) *луга' –на лугу*

(2) *луга' -луг*

(3) *луга' - лужайка*

birinchi so'zda *a* harfiga tushayotgan urg'u keyingi yasama so'zlarda o'zgarayotganini ta'kidlaydi. [Маслов, 1975, 59-63]

Fonetika-fonologiya sohasining har bir jabhasiga to'htalar ekanmiz, Trubetskoyning nazariyalarini keltirmasdan ilojimiz yo'q. N.S.Trubetskoy o'zining "*Основы фонологии*" asari orqali fonologiyani keng tadqiq etdi. Olim tovushlar klassifikatsiyasini berar ekan, har bir tovushning ikki, uch, to'rt varianti va oppozitsiyasini keltiradi. Masalan, *b-p, g-k, d-t* kabi. U tovushlarning oppozitiv holatlarini to'rt turga bo'lib asoslaydi. Trubetskoy tovushlarning pozitsiyasini ularning distributiv holati bilan bog'laydi:

kuchli pozitsiyadagi tovush so'zga hech qanday qo'shimcha qo'shilmay turib, o'zakning bir-biridan bir tovushga farq qilishidir: *сам- сом*;

kuchsiz pozitsiyadagi tovush esa uning aksi, ya'ni o'zakka qo'shimcha qo'shilgach, undagi tovushlarning urg'u orqali farqlanishi: *сома-сама, нога-нага, рок-ро* d kabi.

Trubetskoy ham distributsiyani uch turga (kontrast, qo'shimcha, erkin almashinish) ajratgan. [Трубейцкой, 1960, 126-127.] Tilshunoslikda distributsiya haqidagi umumiy tushunchalarni berishga harakat qildik.

### **Asosiy qism**

O'zbek tili fonetika va fonologiyasi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ularning orasida A.Abduazizov, A.G'ulomov, H.Abdurahmonov, H.Jamolhonov, J.Mamatovlarning ishlari ayniqsa diqqatga sazovor. Biroq o'zbek tilshunosligida distributsiya hodisasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmaganligining guvohi bo'ldik. Distributsiya haqida faqatgina ba'zi adabiyotlarda qisqacha to'htalingan. [Nurmonov 2010; Abduazizov 2010].

Ammo distributsiya hodisasi haqida nisbatan bo'lsa-da to'liq ma'lumot be

rilgan adabiyotlarni uchratmadik.

Turk tilshunosligida aynan distributsiya hodisasi alohida obyekt sifatida o'rganil magan bo'lsada, ba'zi adabiyotlarda uning tovush hodisalariga qo'shib o'rganil ganligini ko'rish mumkin. Masalan, turk tilshunosi Ö.Demircan distributsiyani – “bilgi dağılımı”, “bilgi yapısı” terminlari bilan ifodalaydi va urg'u hodisasi sifa tida qaraydi. Tilshunos distributsiyani vujudga keltiradigan narsa avvalo urg'u va urg'usizlik holati ekanini ta'kidlaydi va so'zning gapda kelish va talaffuz ohan gi urg'uning so'zdagi turli bo'g'inlarga tushishiga sabab bo'lishini aytadi. Masal an, *okul (maktab)* va *anne (ona)* so'zlari yolg'iz qo'llanganda ulardagi urg'u haq ida bahs qilish befoyda. Biroq ular boshqa so'zlar bilan birikib gap hosil qilgand a va qo'shimcha olganda gap ohangiga qarab urg'uning so'zdagi qaysi bo'g'inga tushishi aniqlanadi:

*Oku'l > okulla'r > okullarda' > okullardadi'r;*

*Anne' / a'anne > annele'r > a'nneler* kab [Demircan 2001, 141-151-153-157].

Ko'rilganidek, har ikki so'zda ham turli holat ro'y berdi, ya'ni birinchi so 'zga qo'shimcha qo'shilishi natijasida urg'u ohirgi bo'g'inga ko'chib bormoqda , ikkinchi so'zning ohangiga qarab ham urg'u ko'chmoqda, hamda birinchi bo'g 'inning o'zida qolmoqda. Bu esa turk tilidagi urg'u hodisasini o'zbek tilidan farq lanishini ko'rsatadi, chunki o'zbek tilida urg'u, asosan, ohirgi bo'g'inga tushadi: *kito`b, dara`xt, bola`, ota`, shaha`r* kabi. Ö.Demircanning distributsiyaga oid qa rashiga to'liq qo'shilib bo'lmaydi, albatta, distributsiyaning ma'lum turlarida ur g'uning ahamiyati katta (masalan, qo'shimcha distributsiyada), biroq bu distribu tsiyani aynan urg'uning ichida o'rganish kerak degan xulosani bermaydi.

Xullas tilshunos distributsiyani boshqa tilshunoslardan farqli ravishda so'z urg'u si va gap urg'usi bilan bog'lab o'rganadi. O'zbek tilshunoslaridan H.Jamolxonov so'z urg'usini fonetik tabiatiga ko'ra (dinamik, kvantativ, tipik ottenkali, tonik musiqali urg'u), o'rniga ko'ra (bog'langa urg'u, erkin urg'u), harakat qilish belg isiga ko'ra (ko'chadigan urg'u, ko'chmaydigan urg'u) farqlagan [Jamolxonov, 2004, 85-86].

E.V.Sevortyan esa turk tilidagi distributsiyaning faqat bir turi, ya'ni erkin almashinish distributsiyasiga to'htalar ekan uning ichiga kombinator va pozitsio n tovush o'zgarishlarini ham kiritadi, hamda unlilar almashinuvi va undoshlar al mashinuvini alohida berib o'tadi [Севортян, 1955, 80-83].

Fikrimizcha, distributsiyaning erkin almashinish turiga, har ikki tilda ham , pozitsion va kombinator jarayonlarni birdek taalluqli deb qarab bo'lmaydi, chu nki distributsiya ushbu jarayonlarga o'xshash va farqli hususiyatlari bilan ahami yatli, distributsiyaning ushbu turiga har ikki tildagi kombinator jarayon bo'lmis h assimilyatsiya hodisasini kiritish mumkin [fikrimizni quyida misollar orqali iz ohlaymiz].

Distributiv hodisalarni har ikki tilda va umuman tilshunoslikda kuzatar ek annimiz, distributiv tahlil orqali fonetikadagi tovush hodisalarini tashkil etuvchi p ozitsion va kombinator tovush o'zgarishlarining ba'zi turlari distributsiyaga taall uqli ekani ma'lum bo'ladi va ushbu holatni quyida ikki tildagi misollar orqali iz

ohlashga harakat qilamiz. Yuqorida distributsiyaga oid tilshunoslarning qarashlarini kuzatish jarayonida, distributsiyaning quyidagi turlarini o'rgandik:

*kontrast* distributsiyada ikki elementning bir vaqtda bir o'rinda kelib ma'no farqlash vazifasini bajara olishi tushuniladi: *boy-soy-moy-loy* so'zlarining bos hidagi harflar bir vaqtda bir o'rinda kelib so'zlardagi ma'noni farqlash uchun hizmat qilayapti. Tovushlarning ma'no farqlash hususiyatlarini fonologiya sathi ta'dqiq etgani uchun kontrast distributsiyaning ushbu turini fonologik sathda o'rganiish mumkin va bunga quyida batafsil to'htalib o'tamiz;

*qo'shimcha* distributsiya yoki *to'ldiruvchi* distributsiyada ikki element bir xil pozitsiyada biri o'rnida ikkinchisi kela olmasligi tushuniladi. Masalan, o'zbek tilida *i* va *ɪ* tovushlari talaffuzda qo'llansa-da, yozuvda ular hech qachon biri o'rnida ikkinchisi kela olmaydi;

*erkin almashinish* distributsiyasida esa tovushlarning ma'noga ta'sir etmay biri o'rnida ikkinchisi qo'llana olishi tushuniladi, masalan, *j* va *dj* tovushlarining ko'pincha biri o'rnida ikkinchisi qo'llana olishini keltirish mumkin;

*qisman ekvivalent* distributsiyada ikki har xil element ba'zan bir o'rinda almashinib qo'llana oladi. Masalan, *taroq* so'zidagi *q* o'rniga *tarog* 'g' tovushi ishlatiladi.

Distributsiyaning to'rt modelini kuzatar ekanmiz ularning fonetik sathga ham, fonologik sathga ham tegishli bo'lgan modellarini ko'ramiz. Fikrimizni asoslash uchun o'zbek va turk tillarining fonetik sathiga tegishli bo'lgan distributsiya modellari kuzatamiz.

Yuqorida distributsiyaning *to'ldiruvchi*, *erkin variatsiya* va *qisman ekvivalent* turlarini kuzatish jarayonida ushbu to'rt element fonetik jarayonlar hisoblanmish kombinator va pozitsion tovush o'zgarishlarining ba'zi turlariga xos deb belgilash mumkin.

Ikki elementdan biri uchragan o'rinda ikkinchisi uchramasa, ular bir-birlariga nisbatan *to'ldiruvchi distributsiyada* deyiladi. Masalan, (*p*), (*t*), (*k*) undoshlari unilardan oldin, ikki unli o'rtasida va so'z ohirida kelganda aspiratsiyali va boshqa o'rinlarda kelganda aspiratsiyasiz tovushlar hisoblanadi. Demak, aspiratsiyali va aspiratsiyasiz (*p*), (*t*), (*k*) tovushlarining birinchilari uchragan o'rinda ikkinchilari uchramaydi. Shu sababli bu tovushlar (*p*), (*t*), (*k*) fonemalarining allofonlari hisoblanadi. To'ldiruvchi distributsiya ba'zan fonemalarning variantlarini aniqlashda qo'l kelmaydi. Masalan, o'zbek tilida *ng* fonemasi ko'p hollarda so'z oxirida keladi va bu o'rinda mustaqil fonema hisoblanadi: *tong*, *ong*, *tingla*. U so'z o'rtasida kelganda ikki bo'g'inga ajralib ketadi va undoshlar birikmasi *n-g* hisoblanadi: *singil*, *ko'ngil*.

Demak, *ng* tovushi to'ldiruvchi distributsiyada qatnasha olmaydi. To'ldiruvchi distributsiya asosida qaralganda, *ɪ* va *i* unilari bir fonemaning allofonlari hisoblanishi mumkin. Masalan *bilan* so'zi tarkibida *ɪ* deb talaffuz qilinayotdigan tovushni *i* o'rnida qo'llay olmaymiz.

Turkiy tillarda so'zlar dastlab bir bo'g'inli bo'lgan. [Шоабдурахмонов, Ишаев, 1982, 4].

Ayrim soʻzlarning asta-sekin affiksga oʻtishi, koʻp boʻgʻinli soʻzlarning yuzaga kelishi bilan affiks va oʻzakni oʻzaro birlashtiruvchi prosodik imkoniyatlar yuzaga kela boshladi.

Bu imkoniyatlarning biri soʻz urgʻusi edi. Natijada urgʻu tushgan boʻgʻindagi tovushlar akustik tomondan kuchli, urgʻu tushmagan boʻgʻindagilar esa nisbatan kuchsiz boʻlib boradi. [Mamatov, 1988, 26.]

Urgʻuni unlilar sirtiga taʼsiri juda kuchli. [Gʻulomov, 1947, 13]. Soʻzda urgʻuli boʻgʻinning unlisi kuchli va aniq, uzunroq [Малов, 1951, 330]. talaffuz qilinish, oʻz borligʻini toʻla saqlab qoladi. Urgʻuli boʻgʻindagi unli urgʻusiz boʻgʻindagidan akustik ustunligi, ovozning balandligi, kuchli intensivligi va miqdor jihatdan uzunligi bilan namoyon boʻladi. Urgʻusiz boʻgʻindagi unli esa kuchsiz, yaʼni intensivlikda va miqdor tomondan qisqaroq talaffuz qilinadi. Shuning uchun ham urgʻusiz, yaʼni akustik tomondan kuchsiz boʻlgan boʻgʻin unlisi reduksiyaga uchray boshladi. Demak, turkiy tillarda reduksiyani keltirib chiqaruvchi asosiy oʻmillardan biri, koʻp boʻgʻinli soʻzlarning yuzaga kelishi va buning natijasida soʻz urgʻusining paydo boʻlishidir. Boshqacha qilib aytganda, reduksiyani yuzaga keltirgan hodisa soʻzda boʻgʻinlar sonining oʻzgarishidir. Shunday qilib, yuzaki qaraganda oddiygina boʻlib koʻringan unlilar reduksiyasi til taraqqiyotining tarixiy jarayonida yuzaga kelgan fonetik hodisadir. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi *toʻla, bolta, soʻngal, soʻgal* kabi soʻzlar “Devoni lugʻotit turk” da *tolu, boldu, soʻnu k, soʻgʻul* tarzida yozilgan. Bu soʻzlarda nima uchun reduksiya yuz bermaganining, aksincha, unli kengayganining sababi nomaʼlum. Ehtimol, qoshgʻar shevasiga xos koʻngil > kunal, qoʻshiq>qoʻshaq modelidagi unlilar dissimilyatsiyasi bilan bogʻliq boʻlgan holatdir. Oʻzbek tilida lab singarmonizmining yoʻqola borishi bilan urgʻu taʼsiri kuchayishi oʻlaroq lablangan u unlisi oʻrniga a (keng unli) qoʻllana boshlagan boʻlishi, yaʼni bu unlining urgʻu ushlab qolgan boʻlishi mumkin. Bu ham oʻzbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi yoʻqola boshlaganidan va a soʻz urgʻusi pozitsiyasining kuchayib borganidan dalolat beradi [Mamatov, 1988, 28-29]. Qisqarish [ reduksiya nazarda tutilmoqda]- unli tovushlarning qisqarishi eski turkiy va eski oʻzbek tillarida arab va fors tilidan olingan choʻziq unlili soʻzlarda unlilarning oʻz choʻziqligini yoʻqotishida qonuniyat sifatida sodir boʻladi: *andisha* > *andesha*; *pisha* > *pesha* [Neʼmatov, 1992, 85].

Turk tilining tarixiy fonetikasi bilan shugʻullangan tilshunoslar [Özdemir 1939, 234-236; Orhun Anitlari üzerinden araştırmalar. <http://www.turkdilidergisi.com/>] reduksiya hodisasini *ünlü daralması* termini bilan beradi va soʻzlarning tarixiy koʻrinishi hamda hozirgi koʻrinishini qiyoslab shunday yozadilar:

Soʻzlarning oxirida keluvchi keng unlilar (*a, e*) asosan “*yor*” qoʻshimchasining qoʻshilishi orqali qisqaradi va *i, ı, u, ü* tor unlilariga oʻtadi. Bunga unli qisqarishi (reduksiya) deyiladi:

*bekl-e-yor* > *bekl-i-yor* (kutyapti)  
*kalm-a-yor* > *kalm-ı-yor* (qolyapti)  
*özl-e-yor* > *özl-ü-yor* (sogʻinayapti)  
*soll-a-yor* > *soll-u-yor* (oʻzayapti)

misollarida unli qisqarishini ko‘rish mumkin “yor” qo‘shimchasidan boshqa bir or bir qo‘shimcha tovush torlashtirish hususiyatiga ega emas. Faqatgina bir bo‘g‘inli “de-, ye-” fe‘llari, o‘zidan keyin keluvchi “u” qo‘shimchasi sababli torayishi mumkin:

*deyor* > *diyoyor* (aytayapti)

*de-yerek* > *di-yerek* (aytib)

*de-yen* > *diyen* (aytgan)

Biroq ba’zi hollarda unli qisqarmasligi mumkin:

*De-y-ince* > *de-y-ince* (aytayotib).

Turkolog E.V.Sevortyan esa turk tilidagi reduksiyada *i* harfining yopiq *ı* yoki *e* ga o‘tishini ta’kidlaydi va quyidagi misollarni keltiradi:

yani yan <sup>ii</sup>*ee*, belki belk <sup>ii</sup>*ee*, haydi hayd <sup>ii</sup>*ee*, artik art

Ba’zi so‘zlarda esa unli kuchsiz talaffuz qilinishini aytadi:

*sarımsak* > *saro‘msák* (sarimsoq)

*sarılmak* > *saro‘lmák* (quchoqlamoq)

*yanılmak* > *yanılmák* (yengilmoq)

*kalıpcı* > *kal‘pchi‘* (qolipchi)

*babasına* > *babas‘ná* (otasiga)

*açılacak* > *ach‘ladják* (ochiladi)

*verilecek* > *ver‘ledjék* (beriladi)

*düşürülmek* > *dush‘rulmék* (yiqitilmoq)

Tilshunos bunga, asosan, urg‘uning so‘z oxiriga tushayotgani sababligini aytadi [Севортян, 1955, 80-83].

Turk tilshunoslari Z.Ko‘rkmaz, H.Zulfikarlar ham shunga o‘xshash fikr bildirishadi, ya’ni reduksiya hodisasiga, asosan, urg‘u sabab bo‘lishini quyidagicha izohlaydilar: Turk tilida o‘rta bo‘g‘in urg‘usi zaif bo‘lgani uchun bu bo‘g‘indagi urg‘ular ba’zan torayadi yoki tushib qoladi: *tasarıla* > *tasarla* (loyihalashtir), *besileme* > *besleme* (tarbiyala), *yalınız* > *yalnız* (yolg‘iz) kabi [Korkmaz, Zulfikar, 2005, 75].

Ma’lumki, pozitsion tovush o‘zgarishlari o‘z ichiga bir qancha fonetik jarayonlarni oladi. Tilshunos J.Mamatov buni quyidagicha izohlaydi:

To‘g‘ri bu hodisalarning amalga oshishida tovushning qanday tovush bilan yondosh kelishi, o‘rni, shubhasiz, katta ta’sir qiladi. Ammo, yuqoridagi fonetik hodisalarning ro‘y berishida (prokopa, sinkopa, apokopa, eliziya, sinerezis na zarda tutilmoqda), avvalo, urg‘usizlik va reduksiya hodisasi asosiy rol o‘ynaydi [Mamatov, 2008, 80].

Tilshunos, reduksiya tufayli sodir bo‘ladigan va u bilan bog‘liq fonetik hodisalarga quyidagilarni kiritadi: prokopa, sinkopa, apokopa, eliziya, sinerezis, gapologiya. Biz, reduksiyaga yondosh ushbu hodisalardan faqat sinkopani distributsiyaning to‘ldiruvchi turiga taalluqli deb oldik. Chunki, prokopa, apokopa, sinerezis, eliziya va gapologiya hodisalarida tovush va bo‘g‘in tushish holatlari kuza

tiladi, reduksiya va sinkopa hodisalarida esa urg‘u natijasida so‘zdagi unli kuchsizlanib, ushbu tovushning oppozitsion varianti yuzaga keladi.

*Sinkopa* – reduksiyaning yuqori bosqichi bo‘lib, o‘zak o‘rtasidagi urg‘usiz unlining nutq oqimida kuchsizlanishi va oxir oqibatda tushib qolishi hodisasidir. Bu hodisa ham og‘zaki nutq bilan bog‘liq [Hojiev, 1985, 75].

Tajribaga tortilgan *qipiq, puchuq, hushyor* kabi so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inidagi *i, u* tovushlari ostsillogrammada (tajriba metodi), o‘z aksini topmagan. U larga xos bo‘lgan na miqdor, na sifat belgilari bor. Bu so‘zlarni talaffuz qilganim izda ushbu tovushlar birday tuyuladi. Aslida esa ular yo‘q – sinkopaga uchragan

*Siqiqlatish* [sinkopa nazarda tutilmoqda] – so‘z o‘rtasidagi unlining qisqarib tushib qolishi va so‘z o‘rtasidagi bo‘g‘inning yo‘qolishi – ikkinchi unlisi tor unli bo‘lgan ikki bo‘g‘inli so‘zlarga unli bilan boshlanuvchi qo‘shimcha qo‘shilganda sodir bo‘ladi: *yaqishiq > yaxshi; siqilim > siqlim* [Ne‘matov H. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. T.: O‘qituvchi, 1992. – B.86].

Turk tilshunosi prof. M.Ergin sinkopa hodisasini quyidagicha izohlaydi: Ikki bo‘g‘inli bo‘lib, birinchi bo‘g‘inida (*a, e, o, ö*), ikkinchi bo‘g‘inida tor unli (*ı, i, u, ü*), bo‘lgan ba‘zi turkcha va o‘zlashma so‘zlarga unli bilan boshlangan yoki bir unlidan tashkil topgan qo‘shimcha qo‘shilsa, so‘zning urg‘usiz holga kelgan ikkinchi bo‘g‘inidagi tor unlining tushishiga *hece düşmesi* (bo‘g‘in tushishi) yoki *orta hece ünlüsünün düşmesi* (o‘rta bo‘g‘in unlisining tushishi) ham deyiladi: *ağız > ağzi* (og‘zi), *burun > burnu* (burni); *ilerilemek > ilerlemek* (ilgarilamoq), *kokulamak > koklamak* (hidlamoq), *kavuşak > kavşak* (chorraha), *uyu > uyku* (uyqu), *devir > devril* (ag‘dar).

Ba‘zi holatlarda keng unlilar ham tushishi mumkin:

*nerede > nerde, burada > burda >* (bu erda), *şurada > şurda* (shu erda) [Ergin, <http://www.turkolilidergesi.com>].

Demak, qo‘shimcha (to‘ldiruvchi) distributsiyaga tovushlarning pozitsiyasi jarayonida ro‘y beruvchi fonetik jarayonlardan reduksiya hodisasini har ikki tilda, sinkopa hodisasini faqat o‘zbek tilida mansub deb topdik. Chunki turk tilida bu jarayon o‘zbek tilidan farqli ravishda aynan tovushning talaffuzda tushib qolish jarayoni hisoblangani uchun va distributsiyaning to‘ldiruvchi turi tovush tushish hodisasi emas, balki, ikki elementning talaffuzda o‘zgarish hodisasi bo‘lgani sababli turk tilidagi sinkopa hodisasini distributsiyaga taalluqli deb topmadik

*Erkin almashinish* distributsiyasi, asosan, fonetik jarayonlar hisoblanmish kombinator tovush o‘zgarishlaridan assimilyatsiya jarayonida kuzatiladi. Assimilyatsiya bir xil kategoriyadagi tovushlarning (masalan undosh bilan undoshning) o‘zaro moslashuvidir [Jamolxonov 2005, 73]. Masalan, *ketdi < ketti, tuzsiz < tussiz, terakga < terakka, shanba < shamba* kabi. Turk tilida assimilyatsiya hodisasi tildagi aynan qattiq undoshlar bilan bog‘liq bo‘lib, ahamiyatli tomoni shundaki, o‘zbek tilida faqat talaffuzda ro‘y berayotgan undoshlar moslashuvi turk tilida ham talaffuzda, ham yozuvda ro‘y berib singarmonizm qonuniyatlarini keltirib chiqar

adi.

Turk tilida qattiq undoshlar *f, s, t, k, ç, ş, h, p* hisoblanib, singarmonizm ay nan mana shu undoshlar orqali namoyon bo‘ladi. Turk tilining undoshlaridagi si ngarmonizm hodisasi *ünsüz uyumu* deb ataladi va ularning assimilyativ holati sh unday tasniflanadi:

yumshoq undosh bilan tugagan so‘zlarga *b, c, d, g* undoshlari bilan boshlanuvch i qo‘shimcha qo‘shilsa, so‘z ohiridagi undosh yumshoq holatda qoladi: *kardeş, s ürgün, yaygi, kuralcı, okulda, bilgin;*

ham unli, hamda undosh singarmonizmi bo‘lib, qattiq undosh bilan tugaga n so‘zlarga, *b, c, d, g* bilan boshlanuvchi biror qo‘shimcha qo‘shilsa, bu undoshl ar *p, ç, t, k* ga almashadi: *meslektaş, açtı, aşçı, baktım, çiçekten, kitapçı, dışçı, oc akta, bitkin.*

Turk tilida assimilyatsiya hodisasi *ses benzeşmesi* termini bilan yuritiladi. [Demir can, 2001, 79-80-100]. Demak, distributsiyaning erkin almashinish turiga har ik ki tildagi kombinator jarayonga taalluqli assimilyatsiya hodisasini kiritish mumk in.

*Qisman ekvivalent* distributsiyada bir o‘rinda ikki har xil element ba’zan i shlatila oladi. Bunda bir element ikkinchisining erkin allofoni sifatida qaraladi v a boshqa tovush sinfining vakili hisoblanadi. Masalan, Toshkent shevasida *tarog* so‘zi *tarog‘, chalg‘u<cholg‘u, boyvaccha<boyvochcha* kabi talaffuz etiladi. Ula rdagi tovush almashinuvi so‘zlarning ma’nosini o‘zgartira olmaydi. Bunga o‘zbe k va turk tillaridagi kombinator jarayon hisoblanmish dissimilyatsiya hodisasini kiritish mumkin.

Dissimilyatsiya – so‘z tarkibidagi bir xil yoki o‘xshash tovushlardan birin ing boshqa tovushga ko‘chishi: *birorta> bironta (ror>ron), kissa> kista (ss>st), zarur> zaril.* Turk tilida dissimilyatsiya hodisasi *benzeşmeme – ayrılma* [Demir can, 2001,81] terminlari bilan yuritiladi: *tepme>tekme, kirp>kir, Sansun>Sam sun, muşamma>muşamba, attar>aktar, murdar>mundar* kabi. Demak, har ikki tilda dissimilyatsiya hodisasi bir – biriga o‘xshash va ularni distributsiyaning qis man ekvivalent turiga taalluqli deb topish mumkin.

### **Xulosa**

O‘zbek va turk tillaridagi distributsiya hodisasini o‘rganish natijasida shu nday xulosalar qilish mumkin; fonetik distributsiyaning erkin almashinish turi h aqida, aslida, bundan bir necha asrlar ilgari Beruniy o‘zining risolalari orqali ke ltirgan va bunga misol qilib fors tilidagi *b-v* fonemalarini olgan, Ibn Sino esa o ‘z risolasida *r-r‘, l-l‘* tovushlari bir umumiylikning ikki xil ko‘rinishi ekanligini b ayon qilgan va shu orqali distributsiyaning kontrast (qarama-qarshi) turida voqel anuvchi tovushlar o‘zgarishiga ya’ni fonologiyaga to‘xtalgan. Tilshunoslikka oi d asarlardagi distributsiyani o‘rganish jarayonida ushbu hodisa faqat metod sifat ida qaralganligiga guvoh bo‘ldik va biz distributsiyani ilk bor metod sifatida em as, balki fonetik va fonologik jarayon sifatida tahlil qilindi. Distributsiya hodisas i alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan bo‘lsa-da, aynan distributsiyan ing to‘rt turi: *kontrast, to‘ldiruvchi, erkin almashinish va qisman ekvivalent distr*

- [13] - Ne'matov Q. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. Toshkent. O'qituvchi, 1992. B. 85.
- [14] - Özdem R. Tarihsel bakimdan öztürkçe ve yabancı sözlere fonetik ayrıçları. İstanbul: Universitet yayınları, I, 1939/B.234-236.
- [15] - Korkmaz. Z., Zulfikar H. v.b. Turk Dili ve Kompozisyon – Ankara. 2005. S. 75.
- [16] - Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. T.: O'qituvchi, 1985. B. -75.
- [17] - Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. T.: O'qituvchi, 1992. – B.86.
- [17] - Ergin M. Orhun Abideleri. <http://www.turkolilidergesi.com>.
- [18] - Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. B. 73.
- [19] - Demircan Ö. Türkçenin ses dizimi. İstanbul -2001. S.79-80-100.

## **УЙҒУР ТИЛИДАГИ ЎСИМЛИК НОМЛАРИ АРАБИЗМЛАРИ ВА УЛАРДАГИ ФОНЕТИК ЎЗГАРИШЛАР.**

Фарход Гисаров,  
Турк филологияси кафедраси катта ўқитувчи, ТДШУ

**Аннотация.** Ушбу мақолада уйғурча табобат атамалари уйғур тилидаги ўсимлик номлари арабизмлари ва улардаги фонетик ўзгаришлар дан фикир юритилган. Ўсимлик номларида морфемик, лексик-семантик қурилиши борасида қатор илмий тадқиқот амалга оширилганлигига эътибор қаратилади.

Бунда атаманинг луғавий маъноси ва тил бойлигини ривожлантиришдаги аҳамияти очиқ берилди. Мақолада уйғур тили ва ундаги мавжуд табобат атамаларни таҳлил қилишда баъзи илмий тадқиқот ишлари амалга оширилган бўлса-да, бироқ ўсимликлар номлари, айниқса доривор ўсимликларнинг уйғурча номлари борасида, уларнинг мавзуй-идеографик жиҳатлари борасида илмий тадқиқотлар деярли қилинмаганлиги кўзга ташланади.

Мақолада Шарқий-жанубий Осиёда беморларни доривор ўсимликлар билан даволашда ҳам кучли тажрибалар ва амалий натижаларга эришилган цивилизацияларнинг ўзаро таъсири жараёнида турли тиллардаги генетик ва миллий ментал жиҳатлари муҳим эканлигига урғу берилди.

Шарқ табobati илмининг шаклланиши ва тараққий топишида Уйғур табибчилиги ҳам салмоқли аҳамиятга эгадир.

**Калит сўзлар:** Уйғур тили, табобат атамалари, маданий таъсир, ташқи шакл ўхшашлиги, энциклопедик салоҳият, фонетик ўзига хосликлар, Фарб ва шарқ маданияти, халқаро тиббиёт тили, доривор ўсимликлар, олий мактаб.